Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 15-sentabr 2026-yil

SURXON VOHASI TIBBIYOT MUASSASALARIDA ZAMONAVIY MODDIY-TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI

Salomova Dilorom Ismatullayevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix va falsafa kafedrasi magistranti

Diloromsalomova2002@gmail.com

Tell:+998507717223

ORCID: 0009-0003-7647-3963



Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida, xususan, so‘nggi yillarda Surxondaryo viloyati tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini tubdan modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda vohadagi davolash-profilaktika maskanlarini zamonaviy diagnostika apparatlari, yuqori texnologiyali xirurgik uskunalar va raqamli texnologiyalar bilan jihozlash masalalari statistik ma’lumotlar asosida atroflicha yoritilgan. Shuningdek, chekka hududlarda birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish, "oltin soat" tamoyili asosida shoshilinch tibbiy xizmat sifatini oshirish hamda hududda buyrak ko‘chirish va murakkab kardiologik operatsiyalarni mahalliylashtirish natijalari ko‘rib chiqiladi. Maqolada sohani moliyalashtirish dinamikasi, kadrlar ta’minotidagi mavjud tizimli muammolar va raqamli "Salomatlik profili" tizimining aholi salomatligini muhofaza qilishdagi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi statistik ko'rsatkichlar orqali ilmiy jihatdan asoslab berilgan**.**

Kalit so‘zlar: Shoshilinch tibbiy yordam, sog‘liqni saqlash islohoti, tez yordam, raqamlashtirish, gospitalgacha yordam, oltin soat, innovatsion tibbiyot, bemor xavfsizligi, Surxon vohasi, moddiy-texnika bazasi, tibbiy muassasalar, diagnostika apparatlari, rekonstruksiya, raqamli tibbiyot, aholi salomatligi, tibbiy xizmat sifati, statistika, inson qadri, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami, strategik talab, yuqori texnologiyalar,

modernizatsiya, budjet mablag‘lari, investitsiya, texnologik yangilanish, qishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar, doplerli UZI, EKG apparati, elektron poliklinika, dori-darmon ta’minoti, murakkab jarrohlik, buyrak ko‘chirish, neyroxirurgik mikroskop, kardiologik stentlash, ixtisoslashtirilgan xizmat, retrospektiv tahlil, metodologiya.


KIRISH

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida aholini kuchli ijtimoiy va tibbiy muhofaza qilish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Zero, har qanday islohotning zamirida inson, uning hayoti va salomatligi turadi. O‘tgan davr mobaynida sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan keng ko‘lamli o‘zgarishlarning bosh maqsadi — fuqarolar uchun zamonaviy tibbiy madaniyat talablariga mos keladigan turmush tarzini yaratish hamda aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat bo‘ldi.

O‘zbekiston tibbiyoti tarixida yangi sahifa ochgan muhim voqea — Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 18-mart kuni soha vakillari bilan o‘tkazgan «Tibbiyotdagi islohotlar - inson qadri uchun» mavzusidagi ochiq muloqoti bo‘ldi. Ushbu muloqot nafaqat sohaning kelgusi istiqbollarini belgilab berdi, balki tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini tubdan yangilash borasida ulkan vazifalarni yukladi. Ayniqsa, chekka hududlarda birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va shoshilinch xizmatni yuqori texnologiyalar asosida tashkil etish bugungi kunning strategik talabidir[1]. Aholiga o‘z vaqtida va samarali yordam ko‘rsatish bevosita davolash-profilaktika muassasalarining zamonaviy yuqori texnologiyali apparaturalar bilan jihozlanishiga bog‘liq. Surxon vohasi misolida ko‘radigan bo‘lsak, so‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga ajratilayotgan mablag‘lar miqdori bir necha barobar oshdi. Xususan, 2016-yilda viloyat mahalliy budjetidan sohaga 343,4 mlrd so‘m ajratilgan bo‘lsa, 2020-yilga kelib bu ko‘rsatkich 869,8 mlrd so‘mdan oshib, 253 foizga o‘sganligi tizimni modernizatsiya qilishga qaratilayotgan yuksak e’tiborning yorqin isbotidir. Mazkur maqolada aynan ushbu investitsiyalar natijasida voha tibbiyotida yuz bergan sifat o‘zgarishlari va texnologik yangilanishlar tahlil qilinadi. [2].

Islohotlar natijasida tuman markazlaridan olisda yashaydigan aholining viloyat yoki

respublika markazlariga qatnovini kamaytirish maqsadida qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikalar bazasi mustahkamlanmoqda. Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya institutlari kreditlari hisobiga joylarda doplerli UZI, EKG kabi zamonaviy diagnostika vositalarining o‘rnatilishi, raqamlashtirish jarayonlarining jadallashishi “elektron poliklinika” tizimiga o‘tish imkonini berdi. Shuningdek, shoshilinch tibbiy yordam tizimidagi islohotlar doirasida “oltin soat” tamoyiliga amal qilgan holda, chekka hududlarda yangi oilaviy shifokorlik punktlarining tashkil etilishi, dori-darmon ta’minotining 3 barobarga oshirilishi aholining tibbiyotdan rozi bo‘lish darajasini ko‘tardi. Viloyatda ilgari amalga oshirilishi imkonsiz bo‘lgan murakkab jarrohlik amaliyotlari - buyrak ko‘chirish, neyroxirurgik mikroskoplarda o‘tkaziladigan nozik operatsiyalar hamda kardiologik stentlash amaliyotlarining yo‘lga qo‘yilishi hududiy tibbiyotning salohiyati oshganidan dalolat beradi[2]. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati sog‘liqni saqlash tizimi, xususan, shoshilinch tibbiy yordam va ixtisoslashtirilgan xizmatlar misolida sohadagi tarkibiy o‘zgarishlar, moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilish bosqichlari hamda mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘llari ilmiy va statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi.



Adabiyotlar tahlili

Sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalari ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash iqtisodiyoti va boshqaruv usullari A.K.Xudaykulov kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, unda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Xalqaro tajribada, xususan rivojlangan davlatlarda tibbiyotni raqamlashtirish va "aqlli" texnologiyalarni joriy etish orqali xizmat sifatini oshirish (Digital Health) masalalari J. Smith va R. Jones kabi g‘arb tadqiqotchilari tomonidan yuqori baholangan. Shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasida tibbiy islohotlarning ijtimoiy samaradorligi xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki) hisobotlarida Surxon vohasi misolida ham tahlil qilingan. Biroq, aynan Surxon vohasidagi shoshilinch tibbiy yordam va ixtisoslashgan xizmatlarning moddiy-texnik bazasini tizimli ravishda qiyosiy-statistik tahlil qilish masalasi

alohida tadqiqot obyekti sifatida kam o‘rganilgan.

ILMIY YANGILIK (Scientific Novelty)


Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Hududiy tahlil: Surxondaryo viloyatidagi tibbiyot maskanlarining 2016–2022-yillar oralig‘idagi modernizatsiya jarayonlari ilk bor 253 foizlik o‘sish dinamikasi asosida tizimli tahlil qilindi.

Mahalliylashtirish samaradorligi: Viloyatda ilk bor yo‘lga qo‘yilgan buyrak ko‘chirish va murakkab neyroxirurgik amaliyotlarning aholi sarf-xarajatlarini 90 foizgacha kamaytirishdagi iqtisodiy samarasi aniqlandi.

Raqamli transformatsiya: "Salomatlik profili" va "Elektron poliklinika" tizimlarining chekka hududlarda kasalliklarni barvaqt aniqlashdagi roli statistik ko‘rsatkichlar (sil kasalligi ko‘rsatkichining 36,1 dan 24,6 gacha kamayishi) orqali isbotlab berildi.

Kompleks yondashuv: Faqat texnik jihozlash emas, balki kadrlar yetishmovchiligi (1000 aholiga 17,5 nafar) va infratuzilma muammolarining tibbiy xizmat sifatiga ta’siri o‘zaro bog‘liqlikda ochib berildi.



METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotni o‘tkazishda tizimli tahlil, qiyosiy-statistika va retrospektiv tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida quyidagi bosqichlar amalga oshirildi:

Tadqiqot doirasida Surxondaryo viloyati sog‘liqni saqlash tizimining 2016–2022-yillardagi faoliyatiga oid statistik ko‘rsatkichlar asos qilib olindi. Tahlil jarayonida viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi hisobotlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid farmon va qarorlari ijrosi, shuningdek, shoshilinch va ixtisoslashtirilgan tibbiy markazlarning yillik yakuniy ma’lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqotda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar tahlil qilindi:

2016 va 2020-yillar oralig‘ida budjet mablag‘larining o‘sish dinamikasi (dori-darmon, oziq-ovqat va moddiy-texnika xarajatlari kesimida).

Tibbiyot muassasalarining zamonaviy diagnostika apparatlari (UZI, EKG,

mikroskoplar va h.k.) va transport vositalari bilan ta’minlanganlik darajasi.

Aholi soniga nisbatan shifokorlar ta’minoti va hududlar bo‘yicha (tumanlar kesimida) kadrlar yetishmovchiligi tahlili.

Tadqiqotda Surxondaryo viloyatining chekka va olis hududlarida (masalan, “Qishloq shifokori” dasturi doirasidagi 35 ta mahalla) birlamchi tibbiy xizmatni tashkil etish va “Mobil oftalmologik poliklinika” xizmatlarining samaradorligi alohida tahlil etildi.

Olingan barcha raqamli ma’lumotlar umumlashtirilib, ularning foizli o‘sish sur’atlari hisoblandi. Jumladan, kasallanish darajasining kamayishi (masalan, sil kasalligi bo‘yicha 2018 va 2020-yillar ko‘rsatkichlari) va aholining yuqori texnologik yordam uchun poytaxtga borish darajasi pasayishi matematik usulda baholandi.[2]

TADQIQOT NATIJALARI VA TAHLILI


Aholiga o‘z vaqtida va samarali yordam ko‘rsatish bevosita davolash-profilaktika muassasalarining moddiy-texnika bazasi hamda zamonaviy yuqori texnologiyali apparaturalar bilan jihozlanishiga bog‘liqdir. Surxondaryo viloyati misolida tahlil qilinganda, so‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimiga ajratilayotgan mablag‘lar miqdori bir necha barobar oshgani kuzatildi. Xususan, 2016-yilda viloyat mahalliy budjetidan sohaga 343,4 mlrd so‘m ajratilgan bo‘lsa, 2020-yilga kelib bu ko‘rsatkich 869,8 mlrd so‘mdan oshib, 253 foizga o‘sganligi tizimga qaratilayotgan yuksak e’tiborning yorqin isbotidir. Ayniqsa, dori-darmon ta’minoti uchun ajratilgan mablag‘lar 458 foizga (57,2 mlrd so‘m) ko‘payishi aholining statsionar sharoitda bepul dori vositalari bilan ta’minlanish darajasini tubdan yaxshiladi. 2022-yilda esa birlamchi bo‘g‘in uchun 120 turdagi dori vositalariga 47 mlrd so‘m yo‘naltirilishi surunkali bemorlarning o‘z hududida samarali davolanish imkoniyatini yaratdi[3].

Moddiy-texnik bazaning mustahkamlanishi natijasida viloyatda ilgari faqat respublika markazlarida bajarilgan murakkab operatsiyalarni mahalliylashtirishga erishildi. Masalan, vohada birinchi marta buyrak ko‘chirish amaliyoti yo‘lga qo‘yilib, 13 nafar bemorda muvaffaqiyatli transplantatsiya o‘tkazildi. Kardiologiya sohasida 2021-2022-yillarda 1916 ta koronar tomirlarni stentlash va murakkab aritmiyalarni xirurgik davolash amaliyotlari bajarildi. Neyroxirurgiya yo‘nalishida esa “OPMI VARIO 700” mikroskopi kabi zamonaviy

uskunalar yordamida bosh va orqa miya o‘smalarini operatsiya qilish yo‘lga qo‘yilishi operatsiyadan keyingi nevrologik asoratlarni minimallashtirish imkonini berdi[3].

Shu bilan birga, birlamchi bo‘g‘inni raqamlashtirish va jihozlash borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Aholining qatnovini kamaytirish maqsadida 95 ta oilaviy poliklinika zamonaviy UZI va EKG apparatlari bilan ta’minlandi. Tizimga 523 dona kompyuter jamlanmasining keltirilishi “Elektron poliklinika” tizimini to‘liq ishga tushirishga zamin yaratdi. Termiz shahri va Oltinsoy tumanida o‘tkazilgan xatlov natijasida 350 mingdan ortiq fuqaroning raqamli “Salomatlik profili” yaratilishi kasalliklarni barvaqt aniqlash va profilaktika qilish samaradorligini yangi bosqichga olib chiqdi.

MUHOKAMA




Surxondaryo viloyati sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan “Inson qadri uchun” tamoyili amalda o‘z aksini topmoqda. Biroq, erishilgan salmoqli yutuqlar bilan bir qatorda, tizimda hali o‘z yechimini kutayotgan qator tizimli muammolar ham mavjudligi aniqlandi. Xususan, viloyatda shifokorlar bilan ta’minlanganlik darajasi aholi soniga nisbatan hali ham past ko‘rsatkichda qolmoqda (1000 aholiga 17,5 nafar). Ayniqsa, Qiziriq va Muzrabot tumanlarida (9,2) bu ko‘rsatkich viloyat o‘rtacha darajasidan deyarli ikki barobar pastligi chekka hududlarda ixtisoslashgan kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj yuqoriligini, “Qishloq shifokori” dasturini yanada jadallashtirish lozimligini ko‘rsatadi[4].

Tadqiqot jarayonida aniqlangan yana bir og‘riqli nuqta - tibbiyot markazlarining kommunal-infrastrukturasi, xususan, kuz-qish mavsumiga tayyorgarligi masalasidir. Isitish tizimlaridagi ayrim nosozliklar ko‘rsatilayotgan xizmat sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, 2020-yil holatiga ko‘ra, tez tibbiy yordam avtotransport vositalarining qariyb 38 foizi yetishmasligi va mavjudlarining bir qismi ma’nan eskirganligi shoshilinch yordam ko‘rsatish tezkorligiga ma’lum darajada to‘sqinlik qilgan. Shunga qaramay, sohada xususiy sektor va xorijiy investitsiyalarning o‘rni sezilarli darajada ortib bormoqda. Hindiston, Turkiya va Afg‘oniston bilan hamkorlikda tashkil etilgan “Mehrigiyo MEDMEX”, “ALLES SAGLIQ GROUP” kabi qo‘shma korxonalar viloyatda laboratoriya-diagnostika xizmatlarini xalqaro standartlarga olib chiqdi. Xususiy klinikalarning 2016-yildagi 122

tadan 2021-yilda 300 taga yetishi tizimda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirdi. E’tiborli jihati shundaki, xususiy sektorga berilgan soliq imtiyozlari evaziga aholining muhtoj qatlamiga bepul xizmat ko‘rsatilishi ijtimoiy himoyaning o‘ziga xos va samarali mexanizmi sifatida namoyon bo‘ldi[5].

Surxondaryo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, faqatgina moliyalashtirish miqdorini oshirishning o‘zi yetarli emas. Yuqori texnologiyali uskunalar keltirilishi bilan birga, ularni mahorat bilan boshqara oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash va muassasalarning kommunal-infrastrukturasini yaxshilash kompleks yondashuvni talab etadi. Sil kasalligining 2018-yildan 2020-yilgacha sezilarli kamayishi (har 100 ming aholiga 36,1 dan 24,6 gacha) zamonaviy MGIT laboratoriyalarining joriy etilishi natijasidir. Bu kabi ko‘rsatkichlar tizimli islohotlarning natijaviyligini va voha tibbiyotini modernizatsiya qilish naqadar hayotiy zarurat ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi[5].



XULOSA

Surxondaryo viloyati sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni kompleks tahlil qilish natijasida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi. Birinchidan, so‘nggi yillarda viloyat tibbiyotining moddiy-texnika bazasi tubdan yangilandi. Sohaga ajratilayotgan mablag‘larning 253 foizga oshishi va zamonaviy diagnostika apparatlari (UZI, EKG, yuqori texnologiyali mikroskoplar) bilan ta’minlanish darajasining yaxshilanishi aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini yangi bosqichga olib chiqdi.Ikkinchidan, tibbiy xizmatlarning mahalliylashtirilishi natijasida muhim ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikka erishildi. Viloyat markazida buyrak ko‘chirish, murakkab kardiologik va neyroxirurgik operatsiyalarning yo‘lga qo‘yilishi bemorlarning respublika markazlariga qatnovini va ortiqcha sarf-xarajatlarini 90 foizgacha kamaytirish imkonini berdi. Shu bilan birga, “Salomatlik profili” va raqamlashtirish jarayonlarining joriy etilishi kasalliklarni barvaqt aniqlashda muhim poydevor bo‘ldi. Buni sil kasalligi bilan og‘rish ko‘rsatkichining 100 ming aholiga nisbatan 36,1 dan 24,6 gacha kamayishi misolida ham ko‘rish mumkin.Uchinchidan, tizimli o‘zgarishlarga qaramay, sohada hal etilishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalar saqlanib qolmoqda. Xususan, tumanlarda shifokorlar yetishmovchiligi, tez tibbiy yordam avtotransport parkining eskirganligi va ayrim

muassasalarda issiqlik tizimining nosozligi kabi muammolar ko‘rsatilayotgan xizmatlarning to‘liq samaradorligiga to‘sqinlik qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Surxon vohasi tibbiyotini yanada rivojlantirish uchun nafaqat texnologik jihozlash, balki kadrlar salohiyatini oshirish va infratuzilmani modernizatsiya qilishga qaratilgan kompleks yondashuvni davom ettirish zarur. Bu esa kelgusida aholi salomatligini muhofaza qilishda “Inson qadri uchun” tamoyilining yanada to‘laroq namoyon bo‘lishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-apreldagi “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2863-son qarori.

2.Surxondaryo viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasining 2020–2022-yillar yakunlari bo‘yicha statistik to‘plami. — Termiz, 2023. — 45-62-b.

3.Mirziyoyev Sh.M. Tibbiyotdagi islohotlar — inson qadri uchun: Tibbiyot xodimlari bilan ochiq muloqotdagi nutqi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

4.Xudaykulov A.K. Sog‘liqni saqlash iqtisodiyoti va zamonaviy boshqaruv usullari. — Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2021. — 112-b.

5.Statistik ma’lumotlar to‘plami: O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimi ko‘rsatkichlari. — Toshkent: Davlat statistika qo‘mitasi, 2021.